

SIYOSIY LIDERNING JAMIYAT BILAN MULOQOT O'RNATISH TEXNOLOGIYASI

M.Z.Ahmadxojayev

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Siyosiy-falsafiy jihatdan jamiyatni idora qilish va uni ehtiyojlarini aniqlash maqsadida siyosiy liderning faoliyat birliklari ochib beriladi ayniqsa Jamiyat barqarorligiga erishish uchun uning analitik holatidan kelib chiqib bunda rahbarlik vakolati uning etiketik qarashlari burchga mas'uliyat bilan yondashgan holda jamiyatda inson manfaatlari va uning oliy qadriyatligini dastak qilib olish va jamiyat azolarini kapitalistik jarayonda ijtimoiy bo'hronlardan asrash kabi dogmalar maqsadlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Rezolutsiya, siyosiy lider, umum etirof etilgan qadriyatlar, Erasmus, xalqaro talim standarti (International education degree), gender tenglik, ijtimoiy adolat, demokratik modernizatsiya.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ЛИДЕРА

Аннотация. В данной статье будут Политико-философское управление обществом и определение его потребностей, а также подразделения деятельности политического лидера в целях достижения посредством этого стабильности общества, особенно исходя из ситуации Нового Узбекистана, авторитета лидера, его этические взгляды, ответственное отношение к долгу, интересам человека и его высокая ценность в обществе, раскрываются такие цели догм, как поддержка и защита членов общества от социальных кризисов в капиталистическом процессе.

Ключовые слова: Резолюция, политический лидер, общепризнанные ценности, Эразм, международный стандарт образования (International education degree), гендерное равенство, социальная справедливость, демократическая модернизация .

THE POLITICAL LEADER'S COMMUNICATION TECHNIQUE WITH THE PUBLIC

Abstract. In this article, Political-philosophical management of society and determination of its needs activity units of the political leader in order to achieve the stability of the society through this will be revealed. the purposes of dogmas such as support and protection of members of society from social crises in the capitalist process are revealed.

Key words: Resolution, political leader, universally recognized values, Erasmus, international training standard (international education degree), gender equality, social justice, democratic modernization.

O‘zbekistonda jamiyat hayotini modernizatsiyalash va rivojlantirish strategiyasi taqozo etayotgan yangi kommunikativ innovatsiyalar – siyosiy menejment va jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalari (PR) davlat va xalq o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi sifatida jamiyat barqarorligini ta‘minlash omili ekanligiga doir xulosalardan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun yaratilgan mualliflar jamoasining “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020 yil 5 iyundagi 89-03-1913 son ma‘lumotnomasi). Mazkur nazariy xulosalar darslikning mukammallashishiga katta xissa qo‘shgan; davlat va xalq o‘rtasidagi aloqalar samaradorligini yanada mustahkamlash uchun fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokida mediata‘limning intellektual, innovatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish ijtimoiy zarurat ekanligiga oid xulosalardan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun yaratilgan mualliflar guruhining “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020 yil 5 iyundagi 89-03-1913 son ma‘lumotnomasi). Mazkur nazariy xulosalar o‘quv qo‘llanmaning nazariy jihatdan boyishiga xizmat qilgan; oliy ta‘lim muassasalarida xorijiy davlatlar tajribasi asosida davlat boshqaruvi tizimi uchun “davlat xizmati”, “siyosiy menejment”, “siyosiy PR” va “siyosiy reklama” ixtisosligini ta‘sis etish lozimligiga doir tavsiyalardan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun yaratilgan mualliflar jamoasining “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020 yil 5 iyundagi 89-03-1913 son ma‘lumotnomasi). Mazkur tavsiyalarning darslikka kiritilishi ularning ijtimoiy jihatdan ommalashishiga, nazariy ko‘nikmalar shakllanishiga katta xissa qo‘shgan; ijtimoiy-siyosiy reklamaning siyosat sub‘ektlari bilan fuqarolar o‘rtasida muloqot o‘rnatishga, jamiyat a‘zolarining siyosiy maydondagi axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi asoslab berilganligiga oid yangiligidan O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 12-aprelda qabul qilingan O‘RQ-474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunini tayyorlashda hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali parlament a‘zolarining aholi bilan o‘zaro onlayn muloqotini yanada takomillashtirish, deputatlarni hududdagi ahvoldan xabardorligini oshirish imkoniyatini yaratish bo‘yicha takliflaridan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida “elektron parlament” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 15-avgustdagi 1899-III-son qo‘shma qarorini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2020 yil 27 noyabrdagi 02/3- 221-son ma‘lumotnomasi). Mazkur fikr-mulohazalar mamlakatda davlat va xalq o‘rtasidagi aloqalarni samaradorligini yanada oshirishga hamda Oliy Majlis faoliyatining ushbu yo‘nalishdagi ishlari samaradorligi oshishiga xizmat qilgan; jamiyatni demokratlashtirish jarayonida partiyalararo raqobat muhitini shakllantirish uchun saylov tizimini takomillashtirish hamda “partiya va fuqaro”, “partiya va NNT”, “partiya va

mahalla” tizimi asosida siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan doimiy va maqsadli aloqasini yo‘lga qo‘yish lozimligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga bo‘lib o‘tgan saylovlardagi Saylovoldi dasturining “Davlat, jamiyat qurilishi va sud-huquq sohasida ijtimoiy tenglik hamda ijtimoiy demokratiya” bandlarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashining 2019 yil 9 dekabrda 1-962-son dalolatnomasi). Natijada ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng muhim jabhalari, aholining hayotiy ehtiyojlariga daxldor bo‘lgan va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg‘otadigan masalalar bo‘yicha ijro hokimiyati tomonidan qaror qabul qilishda, parlamentdagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari hamda Xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarini bilan majburiy jamoatchilik maslahatlarini o‘tkazish mexanizmini joriy etish, davlat xizmatlari markazlari negizida “elektron hukumat” tizimi asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga qonun loyihalari va turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik muhokamasi va jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish jarayonida erkin qatnashish imkonini beradigan shoxobchalar tashkil etish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Report of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the extended meeting of the Cabinet of Ministers on the main results of the socio-economic development of our country in 2016 and the most important priorities of the economic program for 2017
2. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the 4th congress of the "Kamolot" youth social movement
3. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the video selector meeting with representatives of the chambers of the Oliy Majlis, political parties and the Ecological Movement of Uzbekistan

UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA TALABA – YOSHLARNI XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA KASBGA QIZIQTIRISHDA BIRINCHI RENESSANS DAVRI ALLOMALARINING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Qahhorova Malika Lutfullayevna
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi Renessans sharoitida yoshlarni kasbga qiziqtirish maqsadida Birinchi Renessans davri allomalarining ilmiy merosidan foydalanish haqida fikrlar bildirilgan. Ajdodlarimizning kasb haqida va kasb uchun kerak bo‘lgan zaruriy jihatlari to‘g‘risidagi qarashlari bayon qilingan.